**Аннотация.** В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты оценки эффективности использования производственных инвестиций на промышленных предприятиях. Проанализировано влияние производственных инвестиций на экономическую эффективность предприятий, состояние использования инвестиционных ресурсов, а также факторы, определяющие результативность инвестиционной деятельности. Освещены вопросы эффективной организации инвестиционной деятельности, модернизации производства, внедрения инновационных технологий и рационального использования финансовых ресурсов. По результатам исследования разработаны научные выводы и практические рекомендации по повышению эффективности инвестиционного управления.

**Ключевые слова:** инвестиции, производственные инвестиции, промышленное предприятие, инвестиционная деятельность, экономическая эффективность, производственная эффективность, капитальные вложения, инновационное развитие, инвестиционное управление.



## KIRISH

Hozirgi globallashtirish jarayonlari chuqurlashib, xalqaro iqtisodiy raqobat tobora kuchayib borayotgan sharoitda sanoat korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash ko'p jihatdan ishlab chiqarish investitsiyalaridan foydalanish samaradorligiga bog'liqdir. Ishlab chiqarish investitsiyalari korxonalarining texnologik yangilanishini jadallashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda eksportbop mahsulotlar ulushini oshirishning muhim iqtisodiy omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, investitsion faollik sanoat korxonalarida resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, investitsion faollik darajasi yuqori bo'lgan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish sur'atlari, mehnat unumdorligi hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari nisbatan barqaror va yuqori darajada shakllanadi. Shu sababli ishlab chiqarish investitsiyalaridan samarali foydalanishni ta'minlash, investitsion jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va ularni samarali boshqarish masalalari zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish hamda yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan tizimli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, qulay investitsion muhitni shakllantirish, hududiy sanoat infratuzilmasini rivojlantirish va sanoat korxonalarining ichki hamda tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor strategik yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Biroq ayrim sanoat korxonalarida investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish zarurati mavjud. Jumladan, ishlab chiqarish texnologiyalarining ma'naviy va jismoniy jihatdan yangilanishga ehtiyoj sezishi, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish zarurati hamda investitsion resurslardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish ehtiyoji investitsion faoliyat samaradorligini oshirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ishlab chiqarish investitsiyalari masalasi iqtisodiy nazariyaning eng muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar asosan investitsiyaning iqtisodiy mohiyati, tasnifi, iqtisodiy o'sishga ta'siri, boshqaruv mexanizmlari hamda ularni baholash usullariga qaratilgan.

Investitsiya tushunchasiga oid klassik yondashuvlarda J.M. Keynes o'zining "Umumiy nazariya" asarida investitsiyani "kapitalning o'sishini ta'minlovchi vosita" sifatida ta'riflab, uni jamg'arma bilan uzviy bog'liq iqtisodiy kategoriya sifatida izohlagan [1]. Shuningdek, iqtisodiy o'sish nazariyasida R. Harrod va E. Domar modellari investitsiya hamda ishlab chiqarish salohiyati o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ilmiy jihatdan asoslab bergan [2].

Zamonaviy yondashuvlarda esa investitsiyalar faqat moddiy aktivlarga emas, balki bilim, texnologiya, innovatsiyalar va inson kapitaliga ham yo'naltirilishi zarurligi ta'kidlanadi. Jumladan, P. Drucker investitsiyani "korxonaning strategik ustunligini mustahkamlovchi vosita" sifatida talqin qilgan [3], D. North esa institutsional muhit va investitsion qarorlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka alohida e'tibor qaratgan [4].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham mazkur yo'nalishda qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, Q.X. Abdurahmonov sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatini tarmoq va hududiy yondashuv asosida baholash mexanizmlarini taklif etgan [5]. S.S. Vahobov va Sh. Ziyadullayev esa ishlab chiqarish investitsiyalarining iqtisodiy samaradorligini ko'rsatkichlar tizimi asosida baholash masalalarini ilmiy jihatdan asoslab bergan [6].

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan investitsion qarorlar va normativ-huquqiy hujjatlar ham ilmiy adabiyotlarda keng tahlil qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026-yillar" to'g'risidagi PF–60-son Farmonida ishlab chiqarish tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish, texnologik modernizatsiya va infratuzilmani rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan [7].

Xalqaro tajriba ham investitsion qarorlarni qabul qilishda faqat moliyaviy mezonlar emas, balki ijtimoiy, ekologik va institutsional omillarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Masalan, J. Dunningning "Ekletik paradigma" yondashuvi transmilliy kompaniyalar investitsion faoliyatida ownership, location va internalization omillarining muhimligini asoslab beradi [8].

Mahalliy olimlardan O. To'ychiyev sanoat investitsiyalarini hududiy jihatdan tahlil qilish indikatorlarini ishlab chiqqan bo'lsa, A. Tadjibayev investitsion risklar va ularni minimallashtirish mexanizmlarini chuqur o'rgangan [9,10].



Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya boshqaruvini rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar ham faol olib borilmoqda. Ulug'bek Xolmirzayevning tadqiqotlarida ushbu yo'nalish bo'yicha konseptual yondashuvlar va amaliy mexanizmlar taklif etilgan [11].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili ishlab chiqarish investitsiyalarining iqtisodiy mohiyati kompleks yondashuvni talab qilishini ko'rsatadi. Ularni baholashda nafaqat rentabellik va daromadlilik, balki barqarorlik, tarmoq salohiyati, texnologik tayyorgarlik darajasi va innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli investitsiyalarni samarali boshqarish uchun zamonaviy metodologiyalarni ishlab chiqish va ularni milliy iqtisodiy amaliyot bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida dialektik yondashuv, iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik kuzatuv hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Shuningdek, investitsion faoliyat samaradorligini baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili, ilmiy umumlashtirish va taqqoslash usullari keng qo'llanildi.

Tadqiqot davomida sanoat korxonalarida ishlab chiqarish investitsiyalarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri statistik va iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholanib, investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi, ishlab chiqarish natijalari va investitsion faoliyatning iqtisodiy natijadorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish investitsiyalarining asosiy maqsadi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantirishdan iboratdir.

Hozirgi sharoitda sanoat korxonalarida investitsiya mablag'lari, asosan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va korxonalar raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi ustuvor strategik yo'nalishlarga yo'naltirilmoqda. Jumladan, investitsion faoliyat ishlab chiqarish jarayonlarini texnologik jihatdan modernizatsiya qilish, zamonaviy va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, energiya hamda resurslardan tejamkor foydalanishni ta'minlovchi uskunalarni tatbiq etish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi quvvatlarni tashkil etishga qaratilmoqda.

Shuningdek, investitsiyalar mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish, tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda korxonalarining eksport salohiyatini mustahkamlashda muhim iqtisodiy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur jarayonlar sanoat korxonalarining bozordagi mavqeini mustahkamlash bilan bir qatorda, hududiy iqtisodiy rivojlanish va yangi ish o'rinlari yaratishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarish investitsiyalaridan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi va korxonaning moliyaviy natijalarida o'z aksini topadi. Shu sababli investitsion faoliyat natijadorligini baholashda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va hududiy sanoatni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Namangan viloyatida ham yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, texnologik yangilanishni jadallashtirish hamda sanoat korxonalarining eksport salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa hududda investitsion faollikni kuchaytirish va sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish uchun muhim iqtisodiy asos yaratmoqda (1-jadval).

1-jadval. Namangan viloyatida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar [12]

Ko'rsatkichlar	Hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	
			2024	2025
Jami	61125,3	107,6	100,0	100,0
markazlashgan investitsiyalar:	3373,9	140,6	4,2	5,5
respublika budjeti	1829,3	109,7	3,0	3,0
Moliya vazirligi huzuridagi suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	-	-	-	-
tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	-	-	-	-
shu jumladan, mln AQSH dollarida	-	-	x	x
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	1544,6	221,2	1,2	2,5
shu jumladan, mln AQSH dollarida	123,2	2,2m	x	x



markazlashmagan investitsiyalar:	57751,4	106,2	95,8	94,5
korxonalar mablag'lari	5003,6	106,1	8,3	8,2
aholi mablag'lari	3465,6	110,1	5,4	5,7
boshqa va kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar	9617,2	35,4	47,8	15,7
shu jumladan, mln AQSH dollarida	760,1	35,8	x	x
shundan:				
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	39177,4	207,9	33,3	64,1
shu jumladan, mln AQSH dollarida	3111,1	211,3	x	x
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	487,6	86,0	1,0	0,8

Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

1-jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi va ularning moliyalashtirish manbalari tarkibida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar yuz berayotganini ko'rsatadi. 2025-yilda jami investitsiyalar hajmi 61 125,3 mlrd so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 107,6 foizga teng bo'lgan. Mazkur holat hududda sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish hamda investitsion faollikni oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning ijobiy natijalarini ifodalaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarning asosiy qismi markazlashmagan investitsiyalar hissasiga to'g'ri kelib, ularning jami investitsiyalardagi ulushi 94,5 foizni tashkil etgan. Ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining 39 177,4 mlrd so'mga yetgani va o'sish sur'atining 207,9 foizni tashkil qilgani sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish jarayonlari faollashayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, korxonalarining o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan investitsiyalar hajmi 5003,6 mlrd so'mni tashkil etgani sanoat korxonalarining investitsion faolligi va moliyaviy barqarorligi mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. Aholi mablag'lari ulushining ortib borishi esa hududda investitsion muhitning yanada yaxshilanayotganini bildiradi.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari sanoat korxonalarida ishlab chiqarish investitsiyalaridan foydalanish samaradorligi oshib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, xorijiy investitsiyalar va markazlashmagan investitsiyalar ulushining yuqoriligi sanoatning texnologik yangilanishi hamda hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda (2-jadval).

## 2-jadval. Namangan viloyatida Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar [12]

	Hajmi, mlrd so'm	umumiy hajmga nisbatan, % da	
		2024	2025
Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami	61125,3	100,0	100,0
shu jumladan:			
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6451,0	6,0	10,5
tog'-kon sanoati	3922,1	3,0	6,4
ishlab chiqarish sanoati	26144,5	51,3	42,8
elektr energiyasi, gaz, bug' va kondensiyalangan havo	6910,7	0,1	11,3
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish	2139,5	10,6	3,5
Qurilish	3647,3	5,4	6,0
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	1629,3	12,0	2,7
tashish va saqlash	2458,5	1,1	4,0
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	124,7	0,2	0,2
axborot va aloqa	443,7	0,2	0,7
moliya va sug'urta faoliyati	21,0	0,6	0,0
kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	1245,8	0,4	2,0
ta'lim	703,7	1,4	1,2



sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	492,2	0,1	0,8
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	36,0	0,1	0,1
turar-joy qurilishiga investitsiyalar	4033,2	4,5	6,6
boshqa faoliyat turlari	722,1	3,0	1,2

Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2-jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibida ishlab chiqarish sohasi ustuvor yo'nalish sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. 2025-yilda jami asosiy kapital investitsiyalari hajmi 61 125,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, investitsiyalarning eng katta qismi ishlab chiqarish sanoati hissasiga to'g'ri kelgan. Xususan, mazkur sohaga 26 144,5 mlrd so'm investitsiya yo'naltirilgan va uning jami investitsiyalardagi ulushi 42,8 foizni tashkil etgan.

Shuningdek, elektr energetikasi, gaz va bug' bilan ta'minlash sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushining 11,3 foizga yetgani ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda energiya ta'minoti samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 6451,0 mlrd so'mni tashkil etib, hududiy iqtisodiyotning agrar yo'nalishlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarning asosiy qismi real sektor va ishlab chiqarish faoliyatiga yo'naltirilayotgani sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun muhim asos yaratmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish sanoatining investitsiyalar tarkibidagi yuqori ulushi sanoat korxonalarida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish va hududiy sanoatning raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda (3-jadval).

### 3-jadval. Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni, birlikda [12]

	Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (birlikda)		Yangi tashkil etilgan korxonalar soni (birlikda)	
	2024	2025	2024	2025
Viloyat jami	3 890	4 300	734	624
Namangan sh.	1 455	1 603	202	221
Mingbuloq	110	112	51	23
Kosonsoy	292	326	66	48
Namangan t.	286	304	36	37
Norin	189	249	47	55
Pop	190	210	41	20
To'raqo'rg'on	263	285	42	46
Uychi	278	286	42	40
Uchqo'rg'on	167	201	40	40
Chortoq	160	167	33	25
Chust	279	311	46	34
Yangiqo'rg'on	221	246	88	35

Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

3-jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida sanoat korxonalarini sonining izchil o'sib borayotgani hududda investitsion faollik va ishlab chiqarish salohiyatining kengayayotganidan dalolat berishini ko'rsatadi. Xususan, 2025-yilda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini soni 4300 taga yetib, 2024-yilga nisbatan 410 taga oshgan. Mazkur holat sanoat sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda yangi korxonalarini tashkil etishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotganini anglatadi.

Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahri hissasiga to'g'ri kelib, faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini soni 1603 tani tashkil etgan. Shuningdek, Kosonsoy, Chust, Namangan tumani va Uychi tumanlarida ham sanoat korxonalarini sonining ortib borayotgani ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini sonining ayrim hududlarda nisbatan sekinlashganiga qaramasdan, mavjud korxonalar sonining umumiy o'sishi investitsiyalarning ko'proq ishlab chiqarishni kengaytirish,



modernizatsiya qilish va mavjud quvvatlarni texnologik yangilashga yo'naltirilayotganini ko'rsatadi. Bu esa sanoat korxonalarida ishlab chiqarish investitsiyalaridan foydalanish samaradorligi ortib borayotganini hamda hududiy sanoatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilayotganini bildiradi.

Shuningdek, investitsion faoliyat samaradorligiga korxonaning moliyaviy holati, boshqaruv samaradorligi, texnologik daraja, investitsion muhit, davlat iqtisodiy siyosati, kredit va soliq tizimi hamda infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli investitsion boshqaruv samaradorligini oshirishda ushbu omillarni kompleks ravishda hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish investitsiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar korxonaning oddiy moliyaviy xarajati emas, balki uning texnologik yangilanishi, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishi, mahsulot sifatini oshirishi hamda uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik iqtisodiy omil hisoblanadi. Maqolada ishlab chiqarish investitsiyalarining sanoat korxonalarida iqtisodiy barqarorligi, mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi va moliyaviy natijalariga bevosita ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Tahlillar Namangan viloyatida investitsion faollik ortib borayotganini ko'rsatadi. Xususan, 2025-yilda asosiy kapitalga yo'naltirilgan jami investitsiyalar hajmi 61 125,3 mlrd so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 107,6 foizga yetgan. Mazkur holat hududda sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish hamda investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning ijobiy natijalarini aks ettiradi.

Investitsiyalar tarkibida markazlashmagan manbalar ulushining yuqoriligi sanoat korxonalarining bozor mexanizmlari asosida rivojlanayotganini ko'rsatadi. 2025-yilda markazlashmagan investitsiyalar ulushi 94,5 foizni tashkil etgani, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi esa 39 177,4 mlrd so'mga yetgani hududda tashqi kapital ishtiroki faollashayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, investitsiya hajmining o'sishi har doim ham avtomatik ravishda yuqori samaradorlikni ta'minlamasligi ta'kidlandi. Investitsiyalar texnologik yangilanish, samarali boshqaruv va ishlab chiqarish rentabelligi bilan uyg'unlashgandagina real iqtisodiy natija beradi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlillar ishlab chiqarish sanoati investitsiyalarni jalb qilishda yetakchi yo'nalish ekanini ko'rsatadi. Jumladan, 2025-yilda ishlab chiqarish sanoatiga 26 144,5 mlrd so'm investitsiya yo'naltirilgan bo'lib, bu jami investitsiyalarning 42,8 foizini tashkil etgan. Mazkur holat real sektor investitsiyalarni iqtisodiy natijaga aylantirishda muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, investitsiyalar tarkibida tarmoqlararo muvozanatni saqlash va investitsion oqimlarni yuqori samaradorlikka ega yo'nalishlarga yo'naltirish zarurati mavjud.

Maqolada sanoat korxonalarida sonining ortishi investitsion faollikning amaliy natijasi sifatida baholangan. 2025-yilda Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarida soni 4300 taga yetib, 2024-yilga nisbatan 410 taga oshgan. Shu bilan birga, ayrim hududlarda yangi tashkil etilgan korxonalar sonining nisbatan sekinlashgani investitsiyalarning ko'proq mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va modernizatsiya qilishga yo'naltirilayotganini ko'rsatadi. Kelgusida innovatsion sanoat klasterlari va yangi ishlab chiqarish subyektlarini rivojlantirish ushbu jarayonning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

Shuningdek, ishlab chiqarish investitsiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirishda faqat investitsiya hajmini ko'paytirish emas, balki ularning natijadorligini baholash mezonlarini aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir investitsion loyiha ishlab chiqarish quvvatlarining o'sishi, mahsulot tannarxining kamayishi, mehnat unumdorligining oshishi, eksport salohiyatining kengayishi hamda korxonaning moliyaviy barqarorligiga ta'siri bo'yicha muntazam monitoring qilinishi zarur. Shu sababli sanoat korxonalarida investitsion boshqaruv tizimini strategik rejalashtirish, monitoring, risklarni baholash va yakuniy samaradorlik tahlili bilan uyg'un holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish investitsiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun investitsiyalar hajmini ko'paytirishning o'zi yetarli emas. Asosiy e'tibor investitsiyalarning natijadorligiga, ya'ni ishlab chiqarish quvvatlarining real o'sishi, mahsulot tannarxining pasayishi, mahsulot sifati va raqobatbardoshligining oshishi, eksport salohiyatining kengayishi hamda korxonalar moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishiga qaratilishi lozim. Shu bois sanoat korxonalarida investitsion loyihalarni tanlash, monitoring qilish va baholash tizimini yanada takomillashtirish, investitsion resurslarni esa texnologik modernizatsiya, innovatsion ishlab chiqarish va yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish zarur hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Keynes, J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan, 1936.
2. Harrod, R.F. "An Essay in Dynamic Theory." The Economic Journal, 1939.



3. Drucker, P.F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. New York: HarperBusiness, 1985.
4. North, D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
5. Abdurahmonov, Q.X. Investitsiya faoliyatini boshqarish asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
6. Vahobov, S.S., Ziyadullayev, Sh. "Investitsion faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari." Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 2021, №4.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Lex.uz.
8. Dunning, J.H. "The Eclectic Paradigm of International Production." Journal of International Business Studies, 1980.
9. To'ychiyev, O. Hududiy investitsiya faolligi va uni baholash uslublari. Toshkent: Fan, 2020.
10. Tadjibayev, A. "Investitsiya risklari va ularni boshqarish." Moliyaviy tadqiqotlar, 2022, №2.
11. Xolmırzayev, U. Hududlarda davlat-xususiy sheriklik asosida bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirish. DSc dissertatsiyasi. Toshkent, 2024.
12. Namangan viloyati Statistika boshqarmasi rasmiy statistik ma'lumotlari. // namstat.uz.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 5 (2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>